
Tuman hokimi xalqaro musobaqa sovrindorlarini taqdirladi

Ma'lumki, yaqinda Qirg'izistonning Issiqkul shahrida Shotaaan Karate bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Ushbu chempionatda Dilshodbek Sidiqov boshchiligidagi "Roshidon Karate WKF" tarbiyalanuvchilari ham ishtirok etib, yettita medalni qo'lga kiritishdi va yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdi. Bugun tuman hokimligida ushbu musobaqa ishtirokchilari tantanli ravishda kutib olindi. Rishton tumani hokimi bugun "Roshidon Karate WKF" tarbiyalanuvchilarini taqdirladi. Taqdirlash marosimida so'zga chiqqanlar yurtimizda sport berilayotgan e'tibor tufayli sportchilarimiz yuksak g'alabalarga erishayotganlinini e'tirof etishdi.

2022-07-05 14:21:01